

## XX ASR O'ZBEK HIKOYALARIDA SYUJET VA UNING TURLARI

*Xolmatov Doston Abdujabbor o'g'li*  
*Farg'ona davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti*

*Annotatsiya. Maqolada XX asr o'zbek hikoyachiligida G'afur G'ulom ijodining o'rni va ahamiyati qator asarlari tahlili orqali yoritib berilgan. Yozuvchining syujet va uning turlaridan foydalanish mahorati ko'rsatib berilgan. G'afur G'ulomning uslubidagi o'ziga xosliklar tadqiq etilgan.*

*Tayanch so'zlar: syujet, mahorat, hikoya, uslub, badiiy vositalar, davr illatlari, tafsil, tahlil, uslub.*

## СЮЖЕТ И ЕГО ТИПЫ В УЗБЕКСКИХ ПОВЕДИЯХ XX ВЕКА

*Холматова Достон Абдуджаббар угли,*  
*студент 2 курса бакалавриата Ферганского государственного университета*

*Абстракт. В статье на основе анализа ряда его произведений освещаются роль и значение творчества Гафура Гулама в узбекском сказительстве XX века. Показано умение писателя использовать сюжет и его виды. Изучены особенности стиля Гафура Гулама.*

*Ключевые слова: сюжет, мастерство, повествование, стиль, художественные средства, пороки эпохи, деталь, анализ, стиль.*

## PLOT AND ITS TYPES IN UZBEK STORIES OF THE 20TH CENTURY

*Xolmatov Doston Abdujabbor o'g'li*  
*2nd year undergraduate doctoral student of Fergana State University*

*Abstract. In the article, the role and importance of Gafur Ghulam's work in Uzbek storytelling of the 20th century is highlighted through the analysis of a number of his works. The writer's ability to use the plot and its types is shown. Peculiarities of Gafur Ghulam's style have been studied.*

*Key words: plot, skill, narrative, style, artistic tools, period vices, detail, analysis, style.*

Badiiy asarda syujetning qanday bo'lishi ijodkor niyatiga, asar mazmuniga bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, "Syujet – badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri, asardagi bir-biriga uzviy bog'liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatidan tarkib topgan voqealar tizimi. Syujetning xronikal, konsentrik, retrospektiv, assosiativ turlari mavjud. Xronikali syujetda voqealar orasida vaqt munosabat (A voqea yuz bergandan so'ng, B voqea yuz beradi) yetakchilik qilsa, konsentrik syujet voqealar orasida sabab-natija munosabati (A voqea yuz bergani uchun B voqea yuz berdi) yetakchilik qiladi. Xronikali syujet bir tomondan hayotning keng epik ko'lamda tasvirlash, ikkinchi tomondan qahramon taqdirini davriy izchillikda harakterni rivojlanishda ko'rsatish uchun qulay. Chunki unda asosiy syujet bilan yondosh holda yordamchi syujet chiziqlarini ham yurgazish juda katta hayot materialini qamrab olish imkoniyati mavjud. Xronikali syujetda asarning "badiiy vaqt"i istalgancha kengaytirilishi mumkin: unda "parallel vaqt"da kechayotgan voqealarni tasvirlash, retropektsiya zamondan ortga qaytish usulidan foydalanish imkoniyatlari ancha keng" [1.289-290]. Shuningdek, "Syujet asarda aks ettirilayotgan voqeadir, yoki harakat, voqea, voqealar silsilasi, zanjiridir" [2.335]. Asosiativ syujetda bir voqea atrofida ro'y beradigan bir qator syujetlar bir qarashda alohida bo'lib tuyulsa-da, asli bir g'oya bir fikr xulosaga birlashadi, uyg'unlashadi. Syujet voqeliklari bir-birini to'ldiradi, asoslaydi. Konsentrik syujetda syujetlardagi bir nechta voqealar oxir-oqibat bir o'zak syujetni ochishga xizmat qiladi. Syujetning turli xil turlaridan foydalanish borasida G'afur G'ulom mahorati o'ziga xos. Uning "Ko'ngilsizning qiligi" (1928) hikoyasi retrospektiv syujet asosida qurilgan. Asarning asosiy qahramoni Sarvar xola bo'lib, u "bir tancha bo'lib gurunglashib go'za chuvis o'tirgan qiz-juvonlar" qistovi bilan o'tmishini so'zlab beradi. Xonposhsha va Mukambaroy so'rayvergach: o'z o'tmishini so'zlashdan oldin shunday shart qo'yadi: "–Xayr, qani aytсам аytay, –dedi, – lekin quloqlaringni solib, jim o'tirasizlar, birortalaring "qilt" etib og'iz ochsalar, hikoya o'sha yerda odoyi tamom. Mendan gina qilmanglar, xo'pmi?" [3,7].

Sarvar xolaning dadasi O'roqchilikda mixgarchilik qiladi. U kambag'al, yolg'izqo'l odam bo'lgani uchun yoniga birorta shogirt yoki xalfa solib ishlatishga qurbi yetmaydi. Sarvarning onasi esa qo'ni-qo'shnilarining to'y, maraka, uy-ro'zg'orlaridagi yumushlariga qarashib, ulardan non, osh olib tiriklikka qarashadi. O'n yettidan o'n sakkizga endigina qadam qo'ygan navqiron Sarvardan tashqari oilada ikkita

kichik o'g'il ukalari bo'lgan. Mahallalaridagi uch qo'shni narida Qosimboy degan katta poyko'pchi bo'lib, uning to'rt-besh joyda katta juvozlari, guruch bozorda besh-oltita do'konlari bo'lgan, har haftada Buxoro tomonga vagon-vagon guruchlarni jo'natib turgan. Uning o'ttiz beshlar chamasidagi G'aniboyvachcha degan o'g'li ham bor bo'lib, xotiniga ko'ngilsiz edi.

Kunlarning birida boyning uyida xizmat qilib yuradigan Sharofat amma degan oqsoch Sarvarni ham ishlarimga qarashib turishsin deb olib chiqib ketadi. Bora-bora Sarvarni Qosimboydan, so'ng uning o'g'li G'aniboyvachchadan qochmaydigan qilishadi. Ushbu holni "Kimsan, Boybuvangdan qochasanmi?", "Nahotki, bitta-yu bitta G'aniboyvachchadan qochsang, xudoga shukur, u kichkina odam emas. Sendaylarga zor ham emas" deya izohlaydilar. Shu bois dadasining boydan qarzi bo'lgani cababli, "boyning uyida bo'ladigan butun mavlaviyatlarda chiqib xizmat qiladigan" bo'lib qoladi.

G'aniboyvachchaning xotini Zumrad mashhur boylardan Inoyathojixonning qizi bo'lib, unchalik chiroyli bo'lmagani bois G'aniboyvachcha unga ko'p ham iqi suyub qaramas edi". Sharofat amma Sarvarni aldab, kelinoyisi – Zumradning uyini yeg'ishtirish bahonasida olib kirib, G'aniboyvachchani changaliga topshiradi.

Sarvar xola ko'z yosh bilan o'zining keyingi taqdirini shunday hikoya qiladi: "... dadamning boydan aqcha olganiga bir yilcha bo'lgan bo'lsa ham bir tiyin to'lay olgani yo'q edi. Boy notariusdan odam bilan kelib, uyimizni xatlatdi. Mahalla-ko'yning narxi bilan hovlimizni boy o'ziga bir yuz yetmish besh so'mga qoldirdi. Boyning dadamdagi haqi ijarasi bilan ikki yuz o'ttiz besh so'm bo'lar ekan, qolgan oltmish so'm pulni dadamga zakotga ushatdi. Biz o'z uyimizni boyga topshirib, ko'chlarimizni ortmoqlab, mana shu yerga kelib qoldik. Dadam meni bir qoshiq obi yovg'on bilan hozirgi erim Sa'di xalfaga erga berdi. Shundan so'ng kuyov, qayin ota chorikorlik qilib, bizni boqmoqqa boshladilar"[3,11].

Hikoyada G'aniboyvachchaning keyingi taqdiri haqida ham ma'lumot Sarvar xola tilidan bayon etiladi: "Mana hozirgi bo'lsa otam-onam o'lib ketdilar Sa'di akangiz yer islohotida Qosimboyning yerini egallab, mol-mulkli bo'ldi. Ukalarim pochchasining yonida yordamchi, Qosimboy o'lib, G'aniboyvachcha shaharda oyoq cho'tkalar emish, yeri hukumat tomonidan bo'lishib berilgan deb eshitgan bo'lsam ham, allazamonlardan buyon ko'rganim yo'q"[3,11].

Yozuvchi Sarvar xolaning o'zini so'zlatish orqali uning taqdirini ta'sirchan ifodalashga erishadi. Hikoya so'ngida ushbu voqelik yosh bola xotiralariga asoslangani ayon bo'ladi. G'afur G'ulom sharq mumtoz adabiyoti, o'zbek xalq ijodiga xos bo'lgan an'ana, hikoya ichida hikoya berish usulidan ustalik bilan foydalanadi.

"Qizaloq"(1928) hikoyasi voqeligi xronikal syujet asosida qurilgan. Asar Mukarramning do'ppi tikib o'tirgan holati tasviri bilan boshlanadi. Yozuvchi chevar xotin-qizlar nutqini juda yaxshi o'rgangan. Mukarrama va uning onasi Zulayho xola tilidan "zangori ipak", "bir qatim", "gulos", "barg", "iroqi do'ppi", "guli beor g'unchalarni" kabi so'z va iboralardan foydalanib, ular nutqidagi hayotiylikka erishadi. Yozuvchi tasvirda do'ppi tikayotgan Mukarrama bilan bog'liq tasvirdan biroz chalg'iydi. Bu orzulari bisyor beg'ubor qiz qiyofasini ko'z oldimizda namoyon etadi. Ushbu hol muallif nutqi vositasida shunday ifodalanadi: "...qizlarning ko'ngli chevar qo'llar iroqi do'ppiga gulbeor g'unchalarni chatar ekan, qaysi baxtli yigit boshida yashnashini ko'zidan o'tkazarmikan? Qizlar qo'li biz yigitlar boshini vositalar bilan silaydi. Faqat o'zlari riyokor, mug'ombir. Ular bizning ko'zlardan buralib qochadilar, ishva bilan yashirinadilar"[3,12].

Do'ppi tikib o'tirgan Mukarramoy qiyofasi, holati shunday tasvirlanadi: "Mukarrama qizil baxmal do'ppiga guli beor g'unchalarni chatdi. Endi oxirgi sannaxni nukraday tishlari bilan uzar ekan, bir xo'rsinib qo'ydi. Uzun, gajjak kipriklari bir ko'tarilib, qaldirg'och qanotiday qayrilma qoshlari bilan apoq-chapoq bo'ldi-da, bir pasayib, pastki qaboqlariga o'girmaday tizildi..."[3,12].

Shu orada ikki noma'lum xotin eshik oldida paydo bo'lib, ular qo'ngiroq polvonning uyini qidirib yurganliklarini aytadilar. Xotinlar "adashib qolganliklari"ni bilishgach, uzr aytib ortga qaytadilar. Mukarrama asli ularning biri Ibayning qo'shnisi, ikkinchisi kelinoyisi ekanligini yaxshi biladi. Mukarrama o'qigan, hukumat xizmatidagi qishloqdoshi Ibayni sevgan, u bilan axdu paymon qilgan. Mukarramaning otasi kambag'al kosib, topgani uy-ro'zg'orga yetmaydi. Shu bois onasining yonida do'ppi tikib, yordam berib. savod chiqarishdan chetda qolgan. Zulayho xola Mukarramaning, "bitta-yu, bitta qizimning nomi bulg'anmasin, mendan ketgandan keyin, topishgani bilan qo'shaqarisin" deya yeru ko'kka ishonmaydi.

Ibay Mukarramaga ota-onasining oldiga bir ikki bor sovchi yuborishini, ular rozi bo'lmasa, boshqa ish qilishini uqtiradi. Hikoyaning ikkinchi qismida Ibay bilan Mukarramaning birgalikda poyezdga chiqib,

qishloqdan qochib ketishi tasviri beriladi. Ana shu kunning ilk sahar payti tasviri hikoyada shunday talqinini topadi: "...Ilk sahar. Tongdan darak yo'q. Quruq, yoqimli shabada chollar saharda turib, o'tgan umrlarini qidirar emishlar. Bomdodga ketarda aytgan ashulalari ham o'sha yigitlikda aytib tugatilmagan yurak dardlari emish. Shuning uchun mungli, zamonli bir qaltirash bilan shabi yaldodan, navqiron subhdan hikoya qilar emish... Xo'rozlar juda pok bir qush. Sahar "qu-quq-qu"lari aqllarga puxtalik, dillarga sevinch, bilaklarga kuch bag'ishlaydi. Ular har sahar haqqush orqali uzoq qarindoshlariga salom yuborar emish...

Zuhro yulduzi ham sahrani juda sevar emish. O'zga yuluzlarning qistalashlariga qaramay, hammadan keyin – sahrani olib, so'ng bitar emish.

Karvonlarga eng unumli yo'l saharda. Ularni uzoq manzillarga Zuhro yulduzi kuzatib qo'yadi. Zuhro yulduzining "yuragi" karvon tuyasining qo'ng'irog'i bilan baravar urar emish..."[1,14-15].

Ushbu hikoya syujetidagi erta tong beg'uborlik timsoli. U go'yo ikki yoshning beg'ubor sevgisi va porloq kelajagidan darak beradi. Zuhro yulduzi detali esa qizning beg'ubor yuksak orzulariga ishora. Karvon tuyasining qo'ng'irog'i poyezd gudogi bilan uyg'unlashib ketadi.

Hikoya syujetida hikoyachi muallif qiyofasi ham yetakchi o'rinni egallaydiki, voqelikka uning munosabati anglatilishiga yordam beradi.

Bu voqeadan so'ng Zulayho xola qizini "oq qiladi". Shokir aka "duoyi bad" qilib, o'zini tinchitdi. Oradan yillar o'tib, ular qizlarini sog'ina boshlaydilar. Kuz paytida mahalla komissiyasidan Shokir akaga xat topshiradilar. Ma'lum bo'lishicha, bu xat Andijon shahridan kuyovi Ibay qizi Mukarramadan ekan. Ular ota-onasidan uzr so'rabdilar. Mukarrama homilador ekan hikoya so'ngida qochqinlarning ota-onasi yoniga kelishlari va qiz nabira ko'rishlari tasviri bilan voqea yakunlanadi.

"Yigit"(1928) hikoyasidagi voqea Boqijon Umarovning kino kassasi yonida bir qizni uchratib qolishi bilan boshlanadi. Yigit qiz bilan tanishib uning ishonchiga erishadi, bilek olib berib, birga kinoga kirishadi. Qizning akasi Gosstraxda ishlar ekan, otasi qari bo'lib, onasi vafot etgan ekan. O'zi doyalik kursida o'qir, endi o'n sakkizdan o'n to'qizga o'tibdi. Ismi Adolat bo'lib, sho'x yigitlarni yoqtirar ekan. Unday zukko yigitlarni birinchi bor ko'rish emish. Keyingi voqealarni Boqijon shunday hikoya qiladi: "Shu voqeadan keyin men u bilan kinolarga boradigan bo'lib qoldim. Bir kuni akasi bilan tanishtirdi. Bir haftadan mo'l ko'rishmasak, sog'inshadigan, ora-sira xat xabar yozishadigan bo'ldik. To'g'risi, bir kuni gapdan gap urinib, bir-birovimiz bilan turmush qurishga so'z berishdik. Bir-birimizdan ranjimay, to'y kunlarini sabrsizlik bilan kuta boshladik..."[1,20].

Kunlarning birida xizmat vaqti tugallab qolay deganida so'lingina bir qiz kirib kelib, "Umarov shu yerdamilar?" deb yigitga murojaat qiladi. Qiz yigitni, Boqijon Umarovni oldiga spravka so'rab kelgan ekan. Bu spravka ijtimoiy kelib chiqishi haqida ekan. Yigit soliq idorasida ishlar, bunday spravkani berolmas edi. Shunday bo'lsa-da, ish vaqti tugaganini, ertaga kelishini aytib, qizning ortidan chiqadi. Qizni shu tariqa bir hafta aldaydi. Uni kinoga taklif qiladi, Adolatga ishlatgan muomalani unga ham ishlatadi. Shu tariqa Adolatga so'z berib qo'yganidan o'kinib, uni unuta boshlaydi. Qiz kunlarning birida butun sirlarini bayon etadi: "U bizning idoraga o'zicha kelmay, Adolat tomonidan, mening xulqim va odatim, boshqa xotin-qizlarga qanday qarashimni sinamoq uchun kelgan ekan..."

Boshimdan qaynoq suv quyilgandek gangib qoldim.

Sharmanda buldim.

Sinaldim.

Sinadilar axir..."[3,21].

G'afur G'ulomning "Yigit" hikoyasida ana shunday odob-axloq masalasi yoritiladi.

"Puch umidlar"(1928) hikoyasining qahramoni Po'latjon va Zulfiyadir. Ular bir-birlarini sevadilar. Yangi davr yoshlari singari maktabda birga o'qiydilar. Po'latjon kimsan Azizxo'ja boyni o'g'li bo'lsa Zulfiya kambag'al oilaning farzandi. Po'latjon yozgan xatlarida Zulfiyaga katta va'dalar beradi. Zulfiyaning avval o'qishni tugatay degan so'zlariga "men senga yordamchi bo'laman" deya ishontiradi. Shu bilan birga "Po'latjon yangi kishi, yangi turmush kishisi. U har narsada yangilik qidiradi. Topib, topib kelgan narsalarini "yangicha" sarf qilishni istaydi. Zulfiya har qancha yangi zamon guli bo'lib, o'sib ungan bo'lsa ham, baribir u eski oilada tug'ilgan. Shuning uchun Zulfiyada Po'latjon qidirgan "yangilik" topilmaydi"[3,23].

Ular turmush quradilar. Oradan ikki yil o'tadi. Zulfiya farzand ko'rish arafasida Po'latjon "Bir to' da bo'ydoq kimsalar ichida ishlashinga men rozi emasman" desa, qaynonasi "Xotin boshingiz bilan o'qib

shahar olib berar edingizmi? deya o'qishdan, sevgan yacheykasidan ajratib oladilar. Zulfiya farzand qo'radi va unga Solih deb ism qo'yadilar. Kunlarning birida Po'latjon o'rtoqlarining yordami bilan bir amallab okrugga kelgan razvyorstka bo'yicha Moskvaga o'qishga jo'namoqchi ekanini, u yerda to'rt yillar bo'lishini aytadi. Zulfiya ilgari va dalariga ko'ra birga o'qimoqchi ekanliklarini eslatsa, Po'latjon tilaklariga bolalari xalaqit berishini aytadi. Solih uchun Zulfiya nafaqa olib turishini yodiga soladi. Asar xronologik syujet asosida qurilgan bo'lib, uning yechimi Po'latjonning Moskvadan yozgan xati bilan yakunlanadi:

“Zulfiya!

Kechirasan, studentlik xayoti o'zingga ma'lum, olgan aqcham bilan bir o'zim kun kechira olmayman. Binobarin, Solihning oqcha (nafaqa)sini ham shu choqqacha ham yubora olmadim. Bundan buyoqqa ham yuborishga iqtidorim yo'q. Senga ishonch bo'lsin deb maktabdan olgan spravkamni yubordim. Senga va Solihga salom bilan Po'latjon”[3,26].

Hikoyada xat tafsilidan mohirlik bilan yozuvchi foydalanadi. Xat voqelikni ta'sirchan bayoni uchun xizmat qilib, qahramonlar ichki dunyosi, xarakterini yoritishga xizmat qiladi. Asarda Po'latjonning xati syujetning yechimi vazifasini bajaradi.

“Jo'rabo'za”(1928) hikoyasi xronikali syujet asosida yaratilgan bo'lib, asosiy qahramoni o'ttiz yoshlardagi dehqon yigit Ahmadqul. Uning uch ukasi bor bo'lib, qo'llaridagi “ikki desat” yerga paxta, bir oz jo'xori bilan kuzgi qirqma qovun ekanlar. Ular dalaga kapa tikib, pishib yotgan qovunlarni poylab yotadilar. Hikoyaga “Daryolarning ul yuzida otim yurganu, Quyishqonni sag'risiga botib yurganu...” satrlarini xat boshida keltirish bilan boshlangan. Xalq og'zaki ijodidagi ot obrazi bilan bog'lik ushbu qo'shiqning berilishi bejiz bo'lmay, u syujetda muhim o'rin tutadi.

Hikoya voqealari “Paykalning so'nggi damlari, chaylada yaktakni qiya qilib yotmagan kishi sovuq yeydi”gan payt – kuz tasviri bilan boshlanadi: “Tong quyoshi Qo'ng'iroq tepa orqasidan bug'riqib qoraydi. Uning birinchi shu'lalari eng daroz teraklarning uchlarigagina tushadi. Ostida quyuoq to'g'on palak yaproqlari shabnamli, marvarid taqqan qizlarday. Qoraqo'tir qirqma qovunlarining yuzlari terlagan, go'yo shafaq latofatidan sharmisor bo'libdi. Chayla ustiga ishkomb bo'lib, yopilib tushgan suv qovoqlar ana uzilay, mana uzilay deb, osilib turadi”[3,56]. Ushbu tabiat tasviri voqea ro'y bergan vaqt – kech kuz manzarasini ko'z oldimizda namoyon etadi.

Ahmadqul va uning ukalari oldiga Bo'ta kelib, Turvat bozoriga sayilga borishga ko'ndirmoqchi bo'ladi. “Vaqtsiz jo'jalagan” Bo'taga Axmadqul “Ayni yig'im-terim vaqtida sayling nimasi?” deya rad javobini beradi.

Bo'taning ikkinchi bor Axmadqullar qo'rg'oniga tashrifi ularning ko'sak chuvib o'tirganlarida ro'y beradi. Bo'ta XX asrning 20-yillarida ochilgan yosh-yalanglar uchun Madiyorning qo'rg'onidagi savodsizlar kursiga borib o'qishni ham xohlamaydi. Ahmadqulning ukalari esa o'qishni istaydilar. Bo'ta o'zining bu holatini shunday izohlaydi: “Hammalarning mulla bo'lib ketsalaring, podani kim boqadi? Men bilan Ahmadqulning o'qimaganimiz ham ma'qul. Ora-sira omi benavolar ham bo'lib tursin. Bizning diydemiz qotib qolgan, nima deysan Ahmadqul?”[3,58].

Ahmadqul uning bu so'rog'iga javob bermaydi. Uning ushbu sukut saqlashi Bo'taning fikrini inkor etgani edi. Ammo unda Bo'taning so'zlarini ochiq rad etishga jur'at yetishmaydi. Ma'lum bo'lishicha, Bo'ta Ahmadqul ustidan “kattalik qilib qo'ygan”, Beshqo'rg'on yigitlari tashkil etgan jo'rabo'zaga uni ham qo'shib qo'ygan ekan. Uning bu gapiga ukalari keskin rad javobini beradilar. Akalarini bo'zaga jo'ra bo'lmasligini aytadilar. Ahmadqulning Bo'taga so'z berib yuborishi quyidagi so'zlardan so'ng ro'y beradi: “– Akalaring senlarning so'zlarindan chiqmaydigan bo'lsa, bekorga belbog' boylab yurgan ekan. Katta boshi bilan kulishlaring nimasi, har kim o'ziga munosib ishni qiladi-da...”[3,58].

Hikoyaning keyingi qismida Ahmadqulning bir to'da badmast qurama yigitlar bilan gulxan atrofida bo'zaxo'rlik qilib o'tirgani tasvirlanadi: “Ahmadqul kech qolgani uchun uch manak, ikki zarang dam olmas, ikki zarang dam olar bo'za ichishga majbur qilindi. Bo'ta aytganicha, “yigit kishi” ichmayman demadi. Uch manakni osonlik bilan ichdi. Ikki zarang dam olmasining birini zo'r bilan ichdi, ikkinchisini yarmigacha borganda ko'ngli allanechuk bo'lib ketdi. Gulxanga qarab ichganlarini barisini tashladi...

Biy g'azablandi. Ahmadqulga darra urdilar. Yana shtraf, yana navbat bilan kosa, uzluksiz ichmoqdalar. Nordon, taxir, bo'tana oqshom zardobi qorinlarni qappaytirmoqda, boshlarni qizdirmoqda o'rtadagi katta chora bo'shar-bushamas katta xumdan kir bo'z belbog'lar orqali suzib o'tkazmoqdalar”[3,59].

Yozuvchi o'tgan asr boshlarida jadid adabiyotida qoralangan ichkilikbozlik illatini o'ziga xos tarzda

tasvirlab, manzarani yanada quyuq qora bo‘yoqlar bilan taqdim etadi: “Yana ichadilar, olam-jahon achimsiq hid. Bu ham yetmaganday bir sasib, bir yonib yotgan gulxanni puflab qo‘yadigan esli kishi yo‘q. Ko‘zlarni yoshlantiradigan achchik tutun burqidi”[3,60].

G‘afur G‘ulom asar syujetidagi ta’sirchanlikni peyzaj tasviri orqali ham ta’minlaydi: “Tashqarida hech kimdan hadiksiz yaydoq izg‘irin hukmron u o‘z zo‘ravonligini yalang‘och daraxtlarga ko‘rsatadi. Bir xo‘roz, ikki xo‘roz, uch xo‘roz qichqirib o‘tdi. Allaqaylarda itlarning qayg‘uli xurishlari...[3,60] Adabiyotshunos A.Sabirdinov ta’kidlaganidek, “G‘.G‘ulom–manzara chizishning, tabiatdagi harakat, holat ranglarni keng ifodalashning mohir ustasi. Uning teran nigohi tabiatdagi lahzalik o‘zgarishlarni rassomona tiyraklik bilan ilg‘ay oladi”[4,8]. Yuqoridagi yaydoq izg‘iriy, yalang‘och daraxtlar tafsillari yaramas bo‘zaxo‘rlik odati va ojizligi tufayli ana shu muhitga tushgan Ahmadqul va unga o‘xshaganlarga ishoradir. Qayg‘uli huriyotgan itlar esa hikoya so‘ngida ro‘y beradigan fojidan darakchi.

O‘zini bilmas holga tushgan Ahmadqul ulfatlarini tark etib, asov otga minib, manzil tomon yo‘l oladi. Erta bilan ot qo‘rg‘onga buktargi yechiq, ayil bo‘shagan holda yetib boradi. Ahmadqulni qo‘shni dehqonlar yordamida uch ukasi izlashga tushadilar.

Hikoya syujetidagi yechim “yig‘ilishib, qarg‘alar uymalashgan yerga bordilar. Unda, ot tuyog‘ida ichak ro‘dalari ag‘darilgan, afti-angori cho‘qilgan, timdalangan boshi majag‘langan, choponlari burda-burda, o‘ng oyog‘i yalang‘och Ahmadqulning badani – sovigan murdasi yotar edi. Yonida siniq nos shisha, yerga sochilgan ikkita bir mirlik chaqa, bitta uch mirlik tangalari bilan...”[3,61].

Xullas, G‘afur G‘ulom hikoyalarida syujet tasirchanligini taminlash uchun uning elementlaridan, turli tasvir vositalardan, ifodalardan, tafsillardan, kompozitsion unsurlardan samarali foydalaniladi. Asar mavzusi va g‘oyasining salmoqdorligi ta’minlaydi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –Toshkent: Akadernashr, 2010.
2. To‘ychiyev U. O‘zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.
3. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. O‘n ikki tomlik. Oltinchi tom. –Toshkent: Fan, 1986.
4. Sabirdinov A. Ma’naviyat va marifat chashmalari. –Toshkent: Akadernashr, 2016.